

# Ta'lim standartlari va dasturlarining mohiyati:

XALQARO TAJRIBADAN O'RGANILGAN SABOQLAR

HAYTBAEVA SAYYORA RAXIMBERGANOVNA

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

## Abstract

Maqolada o'quv dasturlarining dizayni xalqaro ob'ektiv orqali o'rganilib, kontekstga mos, o'quvchilarga yo'naltirilgan va moslashuvchan ta'lim asoslarini yaratishning muhimligi ilgari suriladi. Finlyandiya, Buyuk Britaniya va Singapur kabi rivojlangan mamlakatlarning o'quv dasturlari modellarini tahlil qilish natijasida samarali ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda muvofiqlik, muvozanat, inklyuzivlik hamda mahalliy va global ta'lim ehtiyojlariga moslashuv kabi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

O'quv dasturini loyihalashning asosiy elementlari: aniq maqsadlarni belgilash, tuzilgan tarkibni rivojlantirish, uzviylikka e'tibor qaratish orqali sifatni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o'quv dasturi madaniy va ijtimoiy xilma-xillikni hisobga olib, har bir o'quvchining bilim darajasi, til bilish qobiliyati, shaxsiy qiziqishlari hamda ularning ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlashi lozim. Ta'lim mazmunining moslashuvchanligi esa barcha o'quvchilarga o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qilish va samarali o'rganish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tahlil natijalari ko'ra, muvaffaqiyatli o'quv dasturlari innovatsiyalarni mahalliy an'analar bilan muvozanatlashtirishi, tanqidiy fikrlash va global fuqarolikni kuchaytirishi hamda o'quvchilarni zamonaviy dunyoga tayyorlashi kerak.

Maqola o'quv dasturlarini loyihalashda yagona universal yondashuv mavjud emas degan xulosaga undaydi. O'quv dasturlari global ta'lim tendensiyalariga moslashgan holda ishlab chiqilishi, shu bilan birga, o'quvchilarning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarini inobatga olishi kerak. Bu esa ta'lim tizimining zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvchan va sezgir bo'lishini ta'minlaydi.

## Mundarija

Abstract .....	1
Mundarija .....	2
1. Kirish.....	3
2. O'quv dasturini loyihalash asoslari .....	3
2.1 O'quv dasturini loyihalash modellari .....	3
2.2 O'quv dasturining muvofiqlik va muvozanatlilik tamoyillari .....	3-4
3. O'quv dasturini loyihalashda kontekstning ahamiyati .....	5
4. O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quv dasturini loyihalash .....	5
5. O'quv dasturini ishlab chiqishning asosiy elementlari .....	6
5.1 Maqsadi va vazifalari .....	6
5.2 Tuzilishi va mazmuni .....	7
5.3 Strukturasi va dolzarbligi .....	7
6. Sifatni ta'minlash va tizimli takomillashtirish jarayoni .....	8
7. O'quv dasturini ishlab chiqish bo'yicha mulohazalar .....	8
8. Xulosa .....	9
9. Adabiyotlar .....	10

*“Ishimni boshlashimdan oldin, men yasamoqchi bo‘lgan haykal marmar bo‘lagi ichida turibdi. U allaqachon mavjud. Men shunchaki ortiqcha marmarni kesib tashlasam bo‘ldi”.*

*Mikelanjelo*

## **Ta’lim standartlari va dasturlarning mohiyati: xalqaro tajribadan o‘rganilgan saboqlar**

### **1. Kirish**

O‘quv dasturi har qanday ta’lim tizimining asosi bo‘lib xizmat qilib, o‘quvchilarning akademik faoliyati davomida olgan bilimlari, ko‘nikmalari va munosabatlarini shakllantiradi.

Bugungi globalizatsiyalashgan dunyoda ta’lim tizimi uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda xalqaro istiqbollarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk Britaniyaning Bedfordshire universitetining tadqiqotlari ta’lim tizimi o‘quvchilarni global mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashi lozimligini ko‘rsatyapti. [1]. Ushbu universitet ta’limning zamonaviy yondashuvlariga urg‘u berib, madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Buning uchun madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantiradigan, inklyuziv va xalqaro miqyosda dolzarb bo‘lgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarur. Shu maqsadda turli zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ilmiy-tadqiqot loyihalari, dala tadqiqotlari kabi strategiyalar samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirishga yordam berib, integratsiyalashayotgan dunyoda kasbiy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘quv dasturlari dizaynini global ob’ektivdan o‘rganish orqali o‘quvchiga yo‘naltirilgan tizimlarning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan umumiy printsiplar va moslashuvchan amaliyotlarni aniqlash mumkin. Ushbu maqola o‘quv dasturining mohiyatini uning asosiy tarkibiy qismlari, tanqidiy mulohazalari va xalqaro tajribalardan olingan saboqlarga murojaat qilish orqali o‘rganadi.

### **2. O‘quv dasturini loyihalash asoslari**

#### *2.1 O‘quv dasturini loyihalash modellari*

O‘quv dasturining samarali dizayni loyihalash va qabul qilish jarayonlarini uzviy bog‘lab, ta’limga tizimli yondashuvni shakllantiradi. Asosiy e’tibor o‘quv dasturining mo‘ljallangan doirasiga qaratilishi lozim. Ya’ni, dastur amaliyotga joriy etilganda uning asl maqsad va tamoyillariga mos kelishini ta’minlash muhimdir. Bu esa ta’lim jarayonining yaxlitligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, dizayn jarayoni o‘quv dasturlari, o‘quv rejaları va baholash bo‘yicha qo‘llanmalar kabi asosiy hujjatlarni aniqlash, ularni samarali boshqarish hamda o‘zaro uzviy bog‘liqligini chuqur anglashni talab qiladi. Yuqoridagi elementlarning o‘zaro uyg‘unligi ta’lim jarayonining yaxlit va sifatli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Finlyandiyaning milliy o‘quv dasturlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida uning yaxlit va o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslanganligi haqida aniq tushuncha shakllandi. Bu tizim integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, fanlararo

bog‘liqlikni tushunish, mustaqil ta’lim olish, jamoada ishlash, samarali muloqot qilish hamda o‘zgaruvchan muhitga moslashish kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratadi.

Finlyandiyaning mazkur ta’lim modeli o‘quvchilarga mavzularni yuzaki emas, balki chuqur tahlil qilish, tushunchalarni kengroq anglash va ularni real hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

Unda ta’lim jarayoni nafaqat bilim olish, balki shaxsiy rivojlanish va hayot davomida ta’lim olishga tayyorgarlik bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini yanada mazmunli tashkil qilishga qaratilgan. [2].

Ushbu turli xil yondashuvlar o‘quv dasturlari dizayni har bir mamlakatning o‘ziga xos ta’lim maqsadlari, ijtimoiy kontekstlari va intilishlarini qanday aks ettirishini ko‘rsatib, o‘quv dasturlari doirasini mahalliy ehtiyojlar va ustuvorliklarga moslashtirish muhimligini ta’kidlaydi.

## *2.2 O‘quv dasturining muvofiqlik va muvozanatlilik tamoyillari*

O‘quv dasturining muvofiqligi deganda uning rasmiy belgilangan maqsadlari, amalda qanday tatbiq etilishi va o‘quvchilar tomonidan qanday o‘zlashtirilishi o‘rtasidagi moslik tushuniladi (Mowbray, Holter, Teague, & Bybee, 2003). Yuqori darajadagi muvofiqlik ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga hamda kompetensiyalarni mustahkam shakllantirishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, muvofiqlik – bu ta’lim standartlari, o‘qitish metodlari hamda baholash tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlik va izchillikni ta’minlash jarayoni.

Zamonaviy ta’limning taniqli tadqiqotchi olimlari W. H. Schmidt, H. C. Wang, and C. C. McKnightlar ta’kidlanganlaridek [3], izchillik standartlarning yuqori sifatini belgilovchi element bo‘lib, manfaatdor tomonlar (o‘quvchilar, ota-onalar, siyosatchilar, ta’lim muassasalari) o‘rtasida konsensus (hamfikirlik) va sadoqat (o‘z vazifalarini vijdonan bajarishlari)ni rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘quv dasturini loyihalashda akademik hamda ijtimoiy-emotsional ta’limni birlashtirish, kenglik va chuqurlik o‘rtasidagi muvozanatga erishishni taminlashi kerak. O‘quv dasturi yuklamasi (o‘quvchilarga beriladigan vazifalar hajmi, darslarning murakkablik darajasi va ularni bajarish uchun talab qilinadigan vaqt) va o‘qitish tezligi o‘rtasida muvozanatni ta’minlashi, ya’ni o‘quvchilarga ortiqcha bosim bermasdan, bilimlarni samarali va tushunarli o‘zlashtirish imkonini yaratishi kerak.

Muvofiqlik va muvozanatlilik o‘quv dasturining samarali loyihalashning asosiy ustunlari bo‘lib, uning har tomonlama muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Kembrijda o‘quv dasturining izchilligi yuqori natijalarga erishish uchun muhim hisoblanadi. Bu tamoyil dasturning strukturasi, o‘qitish amaliyoti va baholash tizimining uzviy bog‘liqligini ta’minlab, o‘quvchilarga keng qamrovli va samarali ta’lim tajribasini yaratishga yordam beradi [4]. Ushbu xususiyatlar o‘quv dasturining ichki va tashqi jihatlarini o‘rtasidagi mantiqiy hamda tizimli bog‘liqlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ichki jihatlar sifatida progressiya (o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishi, murakkablik darajasini ortib borishi) hamda o‘quv fanlari va bo‘limlari o‘rtasidagi aloqadorlik (fanlar o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlash, bir-birini to‘ldiruvchi mavzularni uyg‘unlashtirish) ko‘rilsa, tashqi jihatlar esa milliy yoki xalqaro ta’lim standartlariga javob berish, PISA, TIMSS kabi baholash dasturlari talablariga mos kelish va mamlakatning strategik maqsadlariga moslashuvini o‘z ichiga oladi.

Finlyandiya ta'lim modelida ichki va tashqi muvofiqlikka katta e'tibor berilib, o'quv dasturi o'quvchilar bilimlarini bosqichma-bosqich shakllantirishga hamda turli fanlararo integratsiyani ta'minlashga urg'u bergan. Shuningdek, ushbu modelga asosan maktablarda izchil pedagogik yondashuvlarni ta'minlash maqsadida o'qituvchilarning malakasini oshirish o'quv dasturi maqsadlariga muvofiq ravishda tashkil etiladi.

Singapur ta'lim tizimi so'nggi yillarda konstruktivistik yondashuvga asoslangan, chuqur o'zlashtirishni rag'batlantiruvchi va metakognitiv (o'z fikrlash jarayonini anglash, nazorat qilish va boshqarish ko'nikmasi) hamda transversial ko'nikmalar(hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan universal ko'nikmalar)ni erta shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli o'quv dasturini ishlab chiqishga e'tibor qaratmoqda.

Ushbu xalqaro tajribalar ta'lim tizimlarining mahalliy va global o'quv ehtiyojlarini qondirishda, moslashuvchanligini ta'minlashda muvofiqlik va muvozanatlilik tamoyillarining integratsiyalashuvi hamda pedagogik dizayn jarayonida ularning strategik qo'llanilishini aks ettiradi.

### **3. O'quv dasturini loyihalashda kontekstning ahamiyati**

Samarali ishlab chiqilgan o'quv dasturi o'quvchilarning kognitiv ehtiyojlarini qondirish va ularning ijtimoiy-madaniy kontekstiga moslashish uchun milliy, mintaqaviy va xalqaro bilimlarni integratsiyalashgan holda taqdim etishi lozim. O'zbekiston uchun bu, milliy ustuvorliklar va madaniy identifikatsiyani saqlagan holda, global kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro tarkibni tanlab birlashtirish hamda ta'lim jarayonida mahalliy kontekstga oid bilimlarni aks ettirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, o'quv dasturi ta'lim oluvchilarning individual identifikatorlarini, jumladan, lingvistik, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni inobatga olishi zarur. Bu esa ularning ta'lim mazmuniga kognitiv kirishish darajasi va unga bo'lgan affektiv munosabatini shakllantiradi. Masalan Buyuk Britaniyaning Milliy o'quv dasturi Ekspertlar Paneli Hisobotida o'quv dasturining madaniy moslashuvchanligi va mahalliy sharoitga mosligi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekani ta'kidlangan [5].

O'quvchilarning individual ehtiyojlari, ijtimoiy-madaniy kelib chiqishi va ta'lim muhitini chuqur tahlil qilish orqali o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar yanada samarali hamda motivatsion ta'lim jarayonini loyihalashi mumkin. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy o'ziga xosliklari va kontekstual omillarini inobatga olish pedagogik differensiallash va inkluziv ta'lim tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonining barcha o'quvchilarga teng imkoniyat yaratishini, adolatli va mazmunli bilim olishni ta'minlaydi.

### **4. O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quv dasturini loyihalash**

O'quvchilarga yo'naltirilgan o'quv dasturi o'quvchilarning o'ziga xos kontekstlari, ehtiyojlari va tajribalarini aks ettirish orqali ishonchlilik va dolzarblikni birinchi o'ringa qo'yadi. O'quv dasturining samarali dizayni o'quvchilar o'rganishi kerak bo'lgan bilimlarni, ko'nikmalarni, o'qitish tilini va mavjud vaqtni hisobga oladi.

Tenglik, xilma-xillik, dahldorlik tamoyillarini o'quv dasturiga integratsiya qilish har bir o'quvchining o'zini qadrlangan va ta'lim jarayonida faol ishtirokchi sifatida his qilishiga xizmat qiladi. Bu esa inklyuziv ta'lim muhiti shakllanishiga zamin yaratadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, yuqoridagi tamoyillar ijtimoiy-emotsional ta'lim, konstruktivistik yondashuv va madaniy jihatdan mos o'qitish asoslarini o'z ichiga oladi.

Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimi o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda muhim namuna bo'lib, u metakognitiv strategiyalar, tanqidiy tafakkur, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu esa ta'lim jarayonini o'quvchi ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirish orqali shaxsiylashtirilgan o'qitish tamoyillarini qo'llash imkonini beradi. Shunday qilib, tenglik, xilma-xillik, dahldorlik tamoyillarining ta'lim dasturlariga integratsiyasi faqat didaktik samaradorlikni oshiribgina qolmay, balki ta'lim oluvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi [6].

Finlyandiya ta'lim islohotlari o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. Bu esa ularning innovatsion pedagogik strategiyalarni qabul qilishiga, o'quvchi markazli ta'lim muhitlarini yaratishga va ta'lim jarayonini yanada interaktiv hamda samarali tashkil etishni taminlaydi .

Bundan tashqari, o'quv dasturlarida turli madaniy qarashlarni hisobga olish va har xil nuqtai nazarlarni targ'ib qilish, ta'lim jarayonida dominant mavqeni egallagan fikrlarga asoslangan noxolis bayonotlarni sezgir va inklyuziv tushunchalar bilan almashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, G'arb san'atini eng yuksak badiiy yutuq sifatida taqdim etish o'rniga, turli madaniyatlarning san'at va estetikaga qo'shgan hissasini e'tirof etish global madaniy tushunchani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida kognitiv tarafkashlikni bartaraf etish va turli nuqtai nazarlarni aks ettirish orqali o'qituvchilar nafaqat o'quv maqsadlariga erishadilar, balki inklyuziv ta'lim tamoyillarini qo'llash hamda global tafakkurni shakllantirishga hissa qo'shadilar. Shu bilan birga, ta'lim dasturlarida madaniy moslashuvchanlik, ijtimoiy adolat va teng imkoniyat tamoyillarini inobatga olish orqali har bir o'quvchining o'zini qadrlangan hamda ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qilishi ta'minlanadi.

## **5. O'quv dasturini ishlab chiqishning asosiy elementlari**

### *5.1 O'quv dasturining maqsadi va vazifalari*

O'quv dasturini loyihalashda maqsadlar uning asosiy yo'nalishini belgilab, mazmun va tuzilishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Samarali o'quv maqsadlari kompleks yondashuvga asoslangan bo'lib, talabalarning bilim, ijtimoiy ko'nikma va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Masalan, O'zbekiston Milliy o'quv dasturida ijodiy fikrlash, mas'uliyat va uzluksiz ta'limga tayyorgarlik kabi jihatlar bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlar, milliy o'zlik va fuqarolik mas'uliyati kabi tushunchalar ham asosiy o'rin tutadi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat bilim olishini, balki ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Cambridge Lower Secondary dasturi o'quvchilarda kognitiv qiziquvchanlik, global tafakkur va turli fanlar bo'ylab qo'llaniladigan asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'quv dasturida o'quv predmetiga oid maqsadlar va umumiy ta'lim maqsadlari o'rtasidagi bog'liqlikni

ta'minlanishi orqali izchillik, moslashuvchanlik va yuqori akademik standartlar targ'ib etiladi. Bu esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishiga xizmat qiladi. Natijada, ta'lim jarayoni nafaqat akademik muvaffaqiyatga erishishni, balki o'quvchilarning tez o'zgaruvchan dunyoda kasbiy tayyorgarlik va mas'uliyatli fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishni ham qo'llab-quvvatlaydi.

### *5.2 O'quv dasturining tuzilishi va mazmuni*

Samarali o'quv dasturi izchillik, muvozanat va uzluksiz rivojlanishni ta'minlash uchun aniq belgilangan tuzilma hamda puxta ishlab chiqilgan mazmun asosida shakllantirilishi lozim. Dastur tuzilmasi fanlar, modullar va mavzular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tartibga solib, ta'lim mazmunining qanday va qachon o'zlashtirilishini belgilaydi. Integratsiyalashgan o'quv modeli alohida fanlarning o'ziga xosligini saqlagan holda, ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi va ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan qiladi.

Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida, dastur bosqichma-bosqich ixtisoslashuv tamoyiliga asoslanadi. Dastlabki bosqichlarda keng qamrovli mavzular (masalan, "Atrof-muhit tushunchasi" yoki "Tabiat hodisalarini anglash") o'rganiladi. Keyinchalik, o'rta va oliy ta'lim bosqichlarida bu bilimlar biologiya, kimyo va fizika kabi alohida ixtisoslashgan fanlarga ajratilib, yanada chuqurlashtiriladi. Bu yondashuv konseptual tushunchalarning izchil shakllanishi va o'quvchilarning chuqur bilim va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishini ta'minlaydi.

O'quv dasturining mazmunini tanlash uning tuzilmasini to'ldirib, har bir bosqichda o'quvchilarda rivojlantiriladigan bilim va kompetensiyalarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'quv dasturini ishlab chiquvchilar "dastur dizaynerlari" sifatida harakat qilib, mavjud o'quv dasturlari, mahalliy ta'lim konteksti va xalqaro standartlar asosida mazmunni optimallashtiradilar. Xuddi haykaltarosh marmar blokdan asar yaratganidek, ular zarur bilim va ko'nikmalarni ochib berish uchun keraksiz ma'lumotlarni chiqarib tashlaydilar. Mazmunni shakllantirish jarayoni o'quv dasturining maqsadlariga muvofiqlikni ta'minlab, o'quvchilarda ilmiy izlanish, tanqidiy fikrlash va metakognitiv kompetensiyalar kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Struktura va mazmun uyg'unligi orqali o'quv dasturi yaxlit va moslashuvchan bo'lib, turli ta'lim ehtiyojlarini qondiradi hamda o'quvchilarning intellektual rivojlanishini uzluksiz ta'minlaydi.

### *5.3 O'quv dasturining strukturasi va dolzarbligi*

Struktura o'quv dasturlarining mazmuniy asosini tashkil etib, undagi tushunchalar, ko'nikmalar va tarkib o'quvchilarning rivojlanish bosqichlari hamda ijtimoiy ehtiyojlariga mos ravishda izchil va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiriladi. Puxta ishlab chiqilgan struktura o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich egallash, o'quv bosqichlari o'rtasida muammosiz o'tish hamda mustaqil fikrlash va o'zlashtirish jarayoniga tayyorlanish imkonini beradi.

Masalan, Jerom Seymur Brunel spiral o'quv modeli mavzularni turli bosqichlarda tobora chuqurlashgan va murakkablik darajasi ortgan holda qayta ko'rib chiqish orqali tushunchalarni mustahkamlash muhimligini ta'kidlaydi[7]. Shuningdek, o'quv dasturining strukturasi fan xususiyatlariga ko'ra moslashtiriladi: ilmiy tushunchalarni chuqur o'zlashtirish izchil tushuntirish va tajribaviy dalillarga asoslanishni talab qilsa, texnik ko'nikmalar aniqlik va takroriy mashg'ulotlar orqali



rivojlantiriladi, fikrlash qobiliyatlari esa murakkab tahliliy va muammoli vaziyatlarga moslashtirilgan topshiriqlar orqali shakllantiriladi. O'quv dasturining strukturasi puxta rejalashtirilgan taqdirda, o'quvchilar boshlang'ich bilimlardan boshlab, fan doirasida mustaqil tadqiqot va qo'llash darajasiga qadar izchil rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

## **6. O'quv dasturlarining sifatni ta'minlash va tizimli takomillashtirish jarayoni**

Sifatni ta'minlash va o'quv dasturlarini tahlil qilish samarali hamda natijaviy ta'lim jarayonini shakllantirishning asosiy tarkibiy qismidir. Yuqori sifatli o'quv dasturlari konstruktivistik yondashuvga asoslanib, empirik dalillar bilan mustahkamlangan hamda ta'limiy kompetensiyalar va kognitiv rivojlanish bosqichlariga mos tarzda loyihalashtiriladi. O'quv dasturiga kiritiladigan har qanday o'zgarish ta'lim jarayonining uzviyligi, fanlararo integratsiya va didaktik tamoyillarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida pedagogik ekspertiza va tizimli takomillashtirish jarayonidan o'tkaziladi.

Manfaatdor tomonlar, jumladan pedagoglar, baholovchilar va o'quv dasturi mualliflari, ta'lim jarayonining sifatini oshirish va samaradorligini ta'minlash maqsadida tizimli hamda reflektiv tahlilga asoslangan kuzatuv va takomillashtirish jarayonida ishtirok etadilar. O'quv dasturlarini muntazam tahlil qilish ularning maqsadga muvofiqligi, didaktik tuzilishi, mazmunning qamrovi va o'quv bosqichlari bo'yicha natijaviy uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan.

Shuningdek, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ta'lim yuklamasi, metodik moslashuvchanlik va kognitiv rivojlanish darajalariga mosligini hisobga olish muhimdir. O'quv jarayoni dizaynining o'quvchilarga yo'naltirilganligi va amaliy samaradorligi ta'limiy natijalarning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, o'quv dasturlarini doimiy ravishda tahlil qilish va takomillashtirish mexanizmi ta'lim ehtiyojlarining rivojlanib boruvchi xususiyatlariga moslashuvchanlikni ta'minlaydi hamda uzluksiz ta'lim konsepsiyasiga asoslangan holda, mazmun va metodik yondashuvlarning izchil va integrativ rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

## **7. O'quv dasturini ishlab chiqish bo'yicha mulohazalar**

O'quv dasturlarini loyihalashda xalqaro tajribalarni integratsiya qilish samarali ta'lim asoslarini shakllantirishda moslashuvchanlikning markaziy o'rnini hamda kontekstual ahamiyatini yoritib beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli o'quv dasturlari o'quvchilarning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy realliklari bilan uyg'unlashgan bo'lishi lozim, shu sababli standartizatsiyalashgan yondashuv yetarli emas.

Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimi kompetensiyaviy yondashuvni qo'llab-quvvatlab, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan moslashuvchan o'quv dasturlarining samaradorligini namoyon etgan. Singapur esa o'quv dasturlarining doimiy monitoringi, tizimli baholash va sifatni ta'minlash jarayonlari orqali ta'lim strategiyalarini mahalliy ehtiyojlarga moslashtirib, global tendensiyalar bilan uyg'un holda rivojlantirishga erishgan.

Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quv dasturlarini samarali ishlab chiqish uchun lokal kontekst va global innovatsiyalar o'rtasida dinamik muvozanatni saqlash zarur. Ta'lim jarayoni konstruktivistik yondashuv, fanlararo integratsiya va kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillariga asoslangan holda

qurilishi lozim. Bu esa o'quvchilarga nafaqat o'z muhitida, balki kengroq global kontekstdagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlarga moslashish va faol ishtirok etish imkonini yaratadi.

## 8. Xulosa

O'quv dasturini ishlab chiqish – bu mahalliy ta'lim kontekstini xalqaro ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtiradigan dinamik jarayon bo'lib, uning asosiy tamoyillari moslashuvchanlik, izchillik va inklyuzivlik hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimlari o'quvchilarning individualligi, kognitiv rivojlanish xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan yondashuvlarni talab qiladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, Finlyandiya ta'lim tizimi o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuv asosida ularning shaxsiy rivojlanishiga moslashuvchan shart-sharoit yaratishga urg'u beradi, Singapur esa o'quv dasturlarini doimiy ravishda baholash va sifatni oshirish tizimi orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirmoqda, Buyuk Britaniya esa o'quv dasturlarini me'yoriy hujjatlar va baholash tizimi orqali standartlashtirish bilan birga, o'quvchilarning ijtimoiy va akademik ehtiyojlarini hisobga oladigan muvozanatli yondashuvni joriy qilmoqda. Ushbu yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, samarali o'quv dasturlari aniq ta'limiy maqsadlarga asoslanishi, har bir o'quvchining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lishi va muntazam ravishda yangilanib borishi zarur.

Mahalliy kontekst nuqtai nazaridan, O'zbekiston ta'lim tizimi milliy an'analar va zamonaviy pedagogik tamoyillar uyg'unligiga asoslangan holda rivojlanishi kerak. Shu sababli, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot faoliyati va shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim kabi zamonaviy tamoyillar e'tiborga olinishi lozim.

Zamonaviy o'quv dasturi bilimlarni shunchaki uzatish emas, balki o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, global va mahalliy kontekstni anglash, hamkorlikda ishlash va murakkab muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. O'zbekiston ta'lim tizimi uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqishda xalqaro ilg'or tajribalarni inobatga olgan holda, milliy qadriyatlar, madaniy kontekst va o'quvchilarning ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilgan ta'lim modeli shakllantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

## 9. Adabiyotlar

1. K. S. Dillion, "Internationalization and Curriculum Development: Why and How," *Journal of Pedagogic Development*, vol. 4, no. 3, 2025. Available at: <https://www.beds.ac.uk/jpd/volume-4-issue-3/internationalisation-and-curriculum-development-why-and-how?form=MG0AV3>
2. UNESCO International Bureau of Education, "Developing and Implementing Curriculum Frameworks," 2017. Available at: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000263831?form=MG0AV3>
3. W. H. Schmidt, H. C. Wang, and C. C. McKnight, "Curriculum coherence: An examination of US mathematics and science content standards from an international perspective," *Journal of Curriculum Studies*, vol. 37, no. 5, pp. 525-559, 2005.

4. F. Constantinou, J. Greatorex, M. Mouthaan, and T. Coleman. "Is curriculum coherence a fundamental characteristic of high-performing education systems?" \_Cambridge Insights\_. Available: <https://www.cambridge.org/news-and-insights/insights/is-curriculum-coherence-a-fundamental-characteristic-of-highperforming-education-systems> [Accessed: 23-Jan-2025]
5. Department for Education, "The Framework for the National Curriculum: A report by the Expert Panel for the National Curriculum review," London, 2011.
6. OECD, "Curriculum Reform: A Literature Review to Support Effective Implementation," OECD Education Working Paper No. 227, pp. 1-116, 2020. Available at: <https://one.oecd.org/document/EDU/WKP%282020%2927/En/pdf?form=MG0AV3>
7. Брунер, Джером С. (1960). *“Процесс образования”* . ISBN 978-0-674-71001-6